

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI FAOL KITOBXONLIKKA O‘RGATISHDA  
“ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI” DARSLARINING AHAMIYATI****Arziqulova Xolida Nazarovna***Jizzax viloyati Forish tumanidagi 35-sonli umumiy o‘rta ta’lim  
maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini faol kitobxonlikka o‘rgatish, bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli tadbirlar, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilari hayotida o‘qish faoliyatining ahamiyati kabi masalalar yoritilgan. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini badiiy asar o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darslarini samarali tashkil etishning ahamiyati haqidagi fikrlar bayon etilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *kitob, kitobxonlik, Ona tili va o‘qish savodxonligi, o‘yin faoliyati, o‘qish faoliyati, mehnat faoliyati, 5 ta muhim tashabbus,*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida: “Bugun bitta kitob o‘qigan bola, ertaga o‘nta televizor ko‘rgan bolani boshqaradi”, deb ta’kidlaganlarida haq gapni aytgan edilar. Chunki bugun bitta kitob o‘qish orqali ilmini, ma’naviyatini, ruhiyatini boyitayotgan, mustaqil va erkin fikrlashga o‘rganayotgan, o‘qiyotgan ma’lumotlari tufayli dunyoqarashini kengaytirayotgan bola ertaga televizorda turli ko‘ngilochar dasturlar, saviyasiz seriallar, multfilmlarni tomosha qilib o‘tirgan, ularga taqlid qilishnigina o‘rganayotgan tengdoshlaridan ko‘ra hayotda o‘z o‘rnini topishda ko‘proq imkoniyatga ega bo‘ladi. Farzandlarimizning hayotda ma’lum bir sohaning yetuk mutaxassisi bo‘lib yetishishi, Vatan taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadigan fuqaro bo‘lib voyaga yetishishi uchun ularni kitobxonlikka o‘rgatish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bolalarni kitobxonlikka o‘rgatish otanalar bilan birgalikda o‘qituvchilarning ham vazifasidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus!”ning 4-tashabbusida kitobxonlikka e’tibor qaratilgan bo‘lib, Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgandir. Bugungi kunda ushbu vazifani amalga oshirish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, turli yosh davrlari bo‘yicha respublika miqyosida o‘tkazilayotgan “Yosh kitobxon” tanlovi aholi o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib etishda eng yaxshi vositalardan bir bo‘lib xizmat qilmoqda.

Pedagogik manbalarda o‘quvchilar, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tomonidan tashkil etiladigan faoliyatning asosiy turlari o‘yin, mehnat va o‘qish ekanligi qayd etib o‘tiladi. O‘yin faoliyati ixtiyoriylikka asoslanadi. Mehnat va o‘qish faoliyatlari

esa majburiylik xususiyatiga ega. O‘qish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining faoliyatida o‘yin va mehnat kabi asosiy o‘rinni egallasa ham ushbu jarayonni tashkil etish o‘z-o‘zidan ro‘y bermaydi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish jarayonini samarali, muvaffaqiyatli tashkil etish o‘quvchilarda kitobxonlik ko‘nikmalarini nafaqat shakllantirish, shu bilan birga rivojlantirish muayyan pedagogik-psixologik shart-sharoitlarning mavjudligi, ularning individual shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish orqali ta‘minlanadi.

Mavzuni yoritishdan avval “Kitob”, “Kitobxon”, “Kitobxonlik” tushunchalarining ta‘riflariga to‘xtalib o‘tsak. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘atida ushbu tushunchalarga quyidagicha ta‘rif berilgan:

Kitob - Ilm-fan, texnika va sh. k. sohalarga oid bilimlarni o‘zida jamlagan muqovalangan varaqlardan iborat majmua. Kitob sotib olmoq.

Kitobxon - Kitob o‘quvchi. Kitobxonlarga o‘quv xonasida yaxshi sharoit yaratildi.

Kitobxonlik - Kitob o‘qish, ko‘pchilik bo‘lib kitob o‘qish. Talabalarning kitobxonligi fikrlash, hayotga teran boqish uchun zamin oladi.

V.A.Suxomlinskiyning fikricha, “kitob o‘qish aqlli, fikrlovchi tarbiyachi uchun bolaning yuragiga yo‘l topsihga yordam beradigan so‘qmoq yo‘lga o‘xshaydi”. Biz ushbu fikrni juda o‘rinli aytilgan deb hisoblaymiz.

Barchamizga ma‘lumki, mamlakatimizdagi maktablarda 2021-yildan boshlab ona tili va o‘qish fani dars soatlari qisqartirilmagan holda birlashtirilib, yagona dars joriy etildi.

Unga qadar “Ona tili” va “O‘qish” fanlari alohida fan sifatida o‘qitilgan bo‘lsa, endi ushbu ikki fan birlashtirilib, “Ona tili va o‘qish savodxonligi” deb nomlangan yagona fan dars soati saqlab qoling holatda tashkil etilmoqda. Ushbu fan o‘qitishda o‘quvchilarning oldiga qo‘yilgan muhim vazifalar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, dars davomida olgan bilimlarini kundalik faoliyatda qo‘llay olish hamda o‘quvchilar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish hisoblanadi.

Ona tili va o‘qish savodxonligi dasturlarida badiiy asarni tahlil qilishga ko‘proq ahamiyat berilib, matn ustida ishlash yuzasidan xilma-xil topshiriq turlaridan, texnika vositalaridan foydalanishga ko‘proq e‘tibor berildi.

2-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligida berilgan “Samarqand – tarix beshigi” mavzusini o‘rganish jarayonida “Amirni yenggan non” mavzusidagi audiomatni tinglash topshirig‘i berilgan bo‘lib, ushbu topshiriqni bajarish davomida o‘quvchilarga audiomatni eshittirish, berilgan savollarga javob berish bilan cheklanib qolmay, darsda o‘quvchilar bilan audiomatni sahnalashtirish o‘quvchilar bilimini mustahkamlash, ularda kompetensiyalarni shakllantirish, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda badiiy adabiyotga qiziqish uyg‘otish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.





Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashimiz lozimki, Vatanimiz kelajagi hisoblanmish yoshlar o‘rtasida faol kitobxonlikni targ‘ib qilish har bir insonning burchidir. Yoshlarni boshlang‘ich sinfligidanoq badiiy asar o‘qishga, asar asosida mustaqil fikrlash va xulosa chiqarishga o‘rgata olsak ushbu o‘quvchilarni faol kitobxon sifatida voyaga yetkazishimiz mumkin bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darslarini turli xil interfaol metodlar va ta’lim texnologiyalari orqali samarali va muvaffaqiyatli tashkil etish bu borada muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida “Yoshlarga e‘tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san‘at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularga axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini singdirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalari”ga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidagi nutqi. 2019-yil. 19-mart. <https://kun.uz>.
2. Azimova I va boshqalar. Ona tili va o‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. 2-qism. -T.: Respublika ta’lim markazi, 2021.
3. Hojiyev A. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati. –T.: Sharq, 2001.
4. Muminova D. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish. Monografiya. Namangan-2019.
5. Utanbayeva, D. A. (2020). BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINI ONA TILI TA‘LIMI JARAYONIDA MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISH. In *МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ* (pp. 236-239).